



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024-YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA‘LUMOT)**



Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra)

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3301 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 628 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 19 % i) Nukus shahriga, 343 tasi (10,4 %) Amudaryo tumaniga, 321 tasi (9,7%) To‘rtko‘l tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.






Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 5159,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi–ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Taxiatoş tumanida (12502,9 ming so'm), Nukus shahrida (6234,9 ming so'm) o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (2573,3 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi




mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4091,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,3 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nukus shahri (41,1 %), Taxiatosh tumani (18,6 %), Qo'ng'iro't tumani (5,7 %), Amudaryo tumani (4,8 %), To'rtko'l tumani (4,3 %) hamda Beruniy tumani (3,6 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Mo'ynoq tumanida (127,1 %), Qorao'zak tumanida (121,4 %) hamda Shumanay (119,7 %) tumanida kuzatildi.





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash–tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,8 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,6 % ga toʻgʻri keldi.

*yanvar-mart
mlrd. soʻmda*




*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*

*yanvar-mart
FHI, % da*



yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Ohaktosh, ming t.	49,4	43,6	-5,8
Gaz kondensati, ming t.	15,9	14,0	-1,0
Tabiiy gaz, mln. kub.m	265,7	232,3	- 33,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu–tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4091,9 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 79,3 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,03 % ni (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 50,3 % (53,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,0 % (2,9 %), quyi texnologiyali 44,7 % (43,3 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi–51,0 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–22,9 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,0 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi–19,9 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—3,7 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,6%), mebel ishlab chiqarishning ulushi—0,9% (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 187,3 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 5,1 marta ko'paygan), 0.4 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (90,1 % ga ko'paygan), 3,3 ming tonna kalava ip (28,6 % ga kamaygan), 2,1 ming tonna o'simlik yog'i (25,9% ga kamaygan), 11,6 ming tonna paxta tolasi (24,9 % ga kamaygan), 902,9 ming litr aroq (2,7 % ga ko'paygan) 10,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (43,5% ga kamaygan) hamda 55,9 ming m2 gazlamalar (82.1% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	879,1	902,9	23,8
O'simlik yog'i, (tozalangan), t.	2820,9	2090,8	- 730,1
Portlandsement, t.	36614,2	187281,0	150666,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	18422,5	10410,2	- 8012,3
Paxta tolasi, t.	9289,8	11607,0	-2317,2

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish—kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 50,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,7 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 2058,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish—minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 21,6% ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 152,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish–yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 120,0 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 726,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish–spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 93,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 86,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 867,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 69,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish—rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 139,3 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 28,1 mlrd. so'm kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish—korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.



2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 139,0 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 37,2 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 963,6mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,7 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-mart oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 113,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 97,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	1387,1	1572,0	184,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	22,1	21,6	-0,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	50878,8	64237,0	13358,2

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,1 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % iga) to'g'ri keldi.

yanvar-mart
mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

yanvar-mart
FHI, % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 12,7 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 17,5 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 24,1 % ga ko'paydi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1643,3	2039,4	396,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln.so'm	14972,9	16872,9	1900,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	2398,8	2819,6	420,8


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1301,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 25,2 % ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,9 % ni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Amudaryo	44,4
108,9	
Beruniy	98,9
181,1	
Boʻzatov	100,0
10,3	
Qoraoʻzak	45,9
63,7	
Kegeyli	36,0
45,7	
Qoʻngʻirot	22,2
65,8	
Qonlikoʻl	58,0
89,2	
Moʻynoq	74,1
66,9	
Nukus t.	89,3
26,8	
Taxiatosh	2,2
21,2	
Taxtakoʻpir	70,5
45,2	
Toʻrtkoʻl	47,2
105,8	
Xoʻjayli	94,5
161,4	
Chimboy	21,1
26,1	
Shumanay	92,3
56,4	
Ellikqalʼa	61,2
98,3	
Nukus sh.	6,1
128,7	

● mlrd. soʻmda

Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sishsur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 8 ta loyiha bo'yicha 109,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 3,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 21 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

